



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 23-sentabr

VII-14-113-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

“2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli Qarori, 2024-yil 29-noyabrdagi KQ-5-V-sonli Qarori, Budget Kodeksining 126-moddasi hamda tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig‘ilishi bayoniga hamda deputatlarning qo‘shimcha fikr mulohazalarini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining VII chaqiriq o‘n to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ning mahalliy budjetining 2025-yil I va II-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismidan tushgan mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi takliflari hamda 2025-yil 28-avgustdagi tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig‘ilishining 7-sonli bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2025 yil I-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan 179,8 (Bir yuz yetmish to‘qqiz mln sakkiz yuz ming) mln.so‘m hamda 2025 yil II-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan 567,1 (Besh yuz oltmish yetti mln bir yuz ming) mln.so‘m jami **746,9 mln. (Yetti yuz qirq olti mln to‘qqiz yuz ming) so‘m** mablag‘lar ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budjetining 2025-yil I va II-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismidan tushgan mablag‘lari hisobidan ajratiladigan tuman tashkilotlari (Rahbarlari)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ga ajratilgan mablag‘larni ishlatilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Obbozov)ga tuman mahalliy budjetiga tegishli o'zgartirishlar kiritish, shuningdek tuman G'aznachilik bo'linmasi (N.Vasiyev)ga mablag'larni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda budjet mablag'larining to'g'ri va maqsadli xarajatga chiqarilishini ta'minlash bo'yicha shaxsiy javobgarlik mas'uliyati yuklatilsin.

5. Mazkur Qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari M.Zavqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining
2025-yil 23-sentabrdagi
VII-14-113-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Tuman budjetining 2025 yil I va II-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun yo'naltiriladigan mablag'lar miqdori

№	Mablag' ajratish manbaasi	Mablag' ajratiladigan tashkilotlar va hududlar nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag' miqdori (ming so'm)	Asos
1	I-chorak DROBQ	Tuman tibbiyot birlashmasi	Aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishda kechiktirib bo'lmas diagnostik tekshiruv va jarroxlik amaliyotlarini bajarishda tibbiyot apparatlarni sotib olish uchun	179 800,00	Kattaqo'rg'on tumani Tibbiyot birlashmasining 2025 yil 26-avgustdagi 05/1596-sonli xati, Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025 yil 27-avgustdagi 02/02-38-637-sonli xati
2	II-chorak DROBQ	Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga	Tumandagi 5 nafar o'qituvchilarning xorijda malaka oshirishi uchun viloyat Pedagogik mahorat markazi hisobraqamiga 10 700 AQSh dollari ekvivalentligida 2025-yil 28-avgust holatiga 134,1 mln.so'm miqdorida mablag' yo'naltirish uchun	134 100,00	Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining 2025 yil 11-avgustdagi 01-6435/49-sonli xati, Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025 yil 19-avgustdagi 02/02-38-589-sonli xati

№	Mablag' ajratish manbaasi	Mablag' ajratiladigan tashkilotlar va hududlar nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag' miqdori (ming so'm)	Asos
3			Tumandagi 3-umumiy o'rta ta'lim maktabida Muhandislik laboratoriyasi (robototexnika) xonasi tashkil etish va jihozlash uchun	250 000,00	Kattaqo'rg'on tumani maktabgacha va maktab ta'lim bo'limining 2025 yil 26-avgustdagi 1581-sonli xati, Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025 yil 28-avgustdagi 02/02-38-638-sonli xati
5			Tumandagi 17 umumta'lim maktabini atrofini o'rash uchun	35 000,00	
6			2025-2026 kuz - qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan tumandagi 11 ta umumta'lim maktablarining issiqlik tizimlarini ta'mirlash uchun	148 000,00	Kattaqo'rg'on tumani maktabgacha va maktab ta'lim bo'limining 2025 yil 28-avgustdagi 1586-sonli xati, Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025 yil 28-avgustdagi 02/02-38-646-sonli xati
				746 900,00	